

BADIIY TA'LIMDA MUALLIFLIK HUQUQI VA INTERNET OLAMI

Utanova Umida Agzamxodjayevna

f.f.n., dotsent, Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

Alimov Nodir Yunusovich

katta o'qituvchi, Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

Annotasiya. Jamiyatda internetdan foydalanish borasida asarlarning almashinuvi erkinligi tarafdorlari bilan badiiy, musiqa, audiovizual, fotografiya va boshqa asarlardan foydalanish borasidagi mualliflik huquqi monopoliyasi tarafdorlarining kelishuviga erishib, buni qonunchilikda yoritish muhim.

Kalit so'zlar: internet, mualliflik huquqi, erkin foydalanish, mualliflik huquqi monopoliyasi, kelishuv, huquq egalari, internet-provayder.

Аннотация. Важно прийти к соглашению между сторонниками свободы обмена авторскими произведениями и сторонниками установления монополии авторского права на использование произведений искусства, музыки, аудиовизуальных произведений, фотографий и других произведений. И отразить это в законодательстве.

Ключевые слова: интернет, авторское право, свободное пользование, монополия авторского права, соглашение, правообладатели, интернет-провайдер.

Abstract. It is important to reach an agreement between supporters of the freedom to exchange copyrighted works and supporters of establishing a copyright monopoly on the use of works of art, music, audiovisual works, photographs and other works. And reflect this in legislation.

Key words: internet, copyright, free use, copyright monopoly, agreement, copyright holders, internet provider.

Yosh avlodning intellektual bilimini oshirish, madaniy-ma'rifiy merosni talabalarga yetkazish kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. [1, 221].

2022-yil 28-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizning kelgusi besh yillik taraqqiyotini belgilab beruvchi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli farmonni imzoladi. Unda jami 100ta maqsadlar belgilangan bo'lib, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish nomli 97-maqsadida intellektual mulk himoyasi sohalarida milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlarining talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqish vazifasi belgilangan. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun ikkita muhim talablaridan biri bu a'zolikka da'vogar davlatda intellektual mulk huquqini talab darajasida ta'minlashdan iboratdir. [2; 2378].

Oxirgi 30 yil ichida dunyo texnik jihatdan o'zgardi. Insoniyat hayotiga kompyuter, qo'l telefonlari, ayniqsa, internetning kirib kelishi qonunchilikda o'z aksini topdi. Ammo qabul qilinayotgan qonunlar etarli bo'lib chiqmadi. Dunyodagi hech bir davlat bunday o'zgarishlarga tayyor emas edi. Natijada davlatlarning milliy qonunchiligida bu borada bo'shliqlar paydo bo'ldi. [3, 5].

Internet sohasida AQSh, Rossiya, Evropa davlatlari singari O'zbekiston qonunchiligi ham boshlang'ich davrda turibdi.

Ma'lumki, internetga joylashtirilgan asarlarni himoya qilishda mualliflik huquqining normalari qo'llaniladi. Ammo bundan 60-120 yillar ilgari mualliflik huquqining tamal toshlari yaratilayotgan davrda, ya'ni yirik noshirlik kompaniyalari va firmalarning manfaatlarini himoya qilish uchun 1886-yilda Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish haqidagi Bern konvensiyasi, 1952 yilda Jenevada Mualliflik huquqi haqidagi Butunjahon Jeneva konvensiyasi qabul qilingan paytda internet yo'q edi. Qolaversa, Bern va Jeneva konvensiyalari qabul qilinayotgan davrda moddiy shaklda mavjud bo'lgan asarlarga

nisbatan amalda bo'lishligi nazarda tutilgan. Internetda esa asar moddiy ko'rinishda emas, raqamli ko'rinishda bo'ladi. [4, 8].

Muammoning dolzarbligi shundan iboratki, internetda mualliflik huquqi normalarini qo'llash yaxshi samara bermayapdi.

Huquq egalari o'zlariga tegishli bo'lgan asarlardan foyda olmoqchi bo'lishadi, internetdan foydalanuvchilar esa bu asarlarni bepul olishlarini istashadi. Nusxa ko'chirish texnologiyasi va ma'lumotlarning tarqalishi arzonlashmoqda hamda osonlashmoqda. Agar ilgari mualliflik huquqining egalari moddiy asarlarning yaratilishi va sotilishidan daromad olgan bo'lsalar, hozirda-raqamli davrda foydalanuvchilarning asardan nusxa ko'chirishlari va tarqatishi osonlashdi.

Hozirda internetda mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish uchun turlicha takliflar bor, bular qo'yidagilar:

1. internet ma'lumotlariga davlat senzurasini kiritish tarafdorlari;
2. internet umumiy foydalanish resursi bo'lganligi uchun milliy qonunchilik tomonidan cheklanilmasligi tarafdorlari;
3. hattoki, internetda ayni paytgacha joylashtirilgan asarlarni avtomatik tarzda legallashtirish taklifi tarafdorlari.

“Internet erkinligi” g'oyasi tarafdorlari Shvetsiyada “Qaroqchilar partiyasi”ni tashkil etganlar. Hattoki, “Baynalminal qaroqchilar” nomli jamoat tashkiloti ham mavjud. Rossiyada “Qaroqchilar partiyasi” nomli ijtimoiy xarakat faoliyat yuritadi.

Jamiyatda internetdan foydalanish borasida turlicha fikrdagi kishilarning kelishuviga erishish lozim. Bu kelishuv (kompromiss) global informasion makonda ma'lumotlarning almashinuvi erkinligi tarafdorlari bilan badiiy, musiqa, audiovizual, fotografiya va boshqa asarlardan foydalanish borasidagi mualliflik huquqi monopoliyasi tarafdorlarining kelishuvi bo'lishi lozim. [5, 3].

Huquq egalari internetdan foydalanuvchilarning ma'lumotlar almashishini cheklashmoqchi. Muammoning qiyinchiligi shundaki, ko'plab mualliflik huquqining ob'ektlari huquq egalarining rozilgisiz internetda joylashtirilgan. Huquq egalari foydalanuvchilarni javobgarlikka torta olmayapdilar, bunda faqat Internet-provayderlarni ("Uzinfocom", "UzNet", "Tps", "Sarkor Telecom", "Sharq Telecom", "Ars-inform" – O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan mashhur provayderlar; ["Rostelekom"](#), ["ER Telekom"](#), ["Akado"](#), ["VimpelKom"](#), ["TTK"](#) – [Rossiyada faoliyat yuritayotgan mashhur provayderlar](#)) javobgarlikka tortish imkoniyati bor.

Internet texnologiyalarning taraqqiyoti "intellektual mahsulot" va "intellektual mulk" tushunchalarining transformasiyasiga olib kelmoqda. Xalqaro huquq va milliy qonunchilikda bo'shliqlar mavjudligi sezilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqini himoya qilish to'g'risida" gi qonunga ko'ra, muallif – bu ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs. Internetda qanday qilib mualliflikni aniqlash qonunda berilmagan. Biron bir ma'lumot faqatgina internetga joylashtirilganda, ariginal sahifada ko'rsatilgan shaxs muallif deb, topiladi. Lekin ko'p holatlarda internetda qaysi bir ma'lumot ariginal, qaysisi nusxasi ekanligini aniqlashning imkoniyati yo'q. Agar ariginal sahifada bir muallif ismi, nusxa sahifada boshqa ism ko'rsatilgan bo'lsa, haqiqiy muallifni sudda aniqlash murakkablashadi.

Vikipedia - ko'p tillik, webga asoslangan erkin entsiklopediyadir. U ko'pchilik tomonidan yoziladi va uni yozishda hech qanday cheklanishlar qo'yilmaydi. Ushbu loyiha 15 yanvar 2001 yil mutaxassislarga mo'ljallangana "Nupedia"ga to'ldiruvchi sifatida yaratilib, hozirda uni notijorat "Wikimedia Foundation" tashkiloti boshqaradi. Vikipediya bugunga kelib eng katta va eng ko'p qaraladigan ma'lumot manbasiga aylandi. Hozirda bu bepul entsiklopediyada dunyoning 283 tilida bir necha milliondan oshiq maqola bor. Foydalanuvchilar soni – 30.603 tadan ko'p.

Vikipediya tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, ba'zan mualliflar o'z asarlariga bo'lgan mulkiy huquqlarni saqlab qolmagan, ya'ni hech qanday mablag' talab qilmagan holda tarqatish istagida bo'ladilar. Vikipediya o'xshagan tashkilot esa biron bir

muallifning maqolasini tashkilot saytiga joylashtirib, ommalashtirsa, vaqti kelib muallif mutlaq huquqlarim buzildi deb, nizoli vaziyatni keltirib chiqishi mumkinligidan xavotirda bo'ladi. Milliy qonunchiligimizni bunga moslashtirib, jamiyatni axborotga bo'lgan talabini qondirish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasi Asosiy tushunchalariga "erkin asarlar" tushunchasini ham kiritish taklifi bildiriladi. [6, 915].

"Erkin asarlar" – bu erkin foydalanilishi, tarqatilishi, rivojlantirilishi mumkin bo'lgan ijodiy asarlar bo'lib, ularga nisbatan mutlaq huquqlar huquq egasi istagan doirada amalda bo'ladi, degan qo'shimchani qonunga kiritish lozim. Masalan, vikipediya saytidagi ma'lumotlar, matnlar, suratlar, foto asarlar har bir internet foydalanuvchi tomonidan erkin foydalaniladi, o'zgartiriladi, qo'shimcha qilinadi.

"Erkin asarlar" tushunchasi milliy qonunchilikka kiritilishi bilan "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunga Erkin litsenziya shartlari asosida nomuayyan doiradagi shaxslarga asardan foydalanishni taqdim etish huquqini mualliflarning mutlaq huquqlari doirasiga kiritilishi talab qilinadi. [7, 28]. Bunday turdagi litsenziya Vikipediya saytida Creative Commons litsenziyalari, deb ataladi.

Creative Commons litsenziyalari – bu mualliflik huquqi egasiga hech qanday haq to'lamasdan, litsenziya matnida ko'rsatilgan doirada va usulda asardan foydalanishga ruxsat beruvchi namunaviy litsenziya shartnomalari guruhidir.

Bu litsenziyalar mualliflik huquqi egasiga mualliflik huquqi bilan himoyalangan o'ziga tagishli bo'lgan asardan hech qanday to'lovsiz, shuningdek hech qanday cheklovlarisiz foydalanishni istagan shaxsga ma'lum shartlar asosida foydalanish huquqini berish imkoniyatini beradi.

Creative Commons litsenziyalarining mohiyatini qisqacha "ba'zi huquqlar himoyalangan" formulasi bilan ifodalash mumkin. Ushbu litsenziyalar "barcha huquqlar himoyalangan" formulasini ta'minlaydigan an'anaviy mualliflik huquqi va ijtimoiy mulk o'rtasidagi oraliq holatdir.

An'anaviy mualliflik huquqi mualliflarning o'z huquqlarini maksimal darajada, yuz foiz himoya qilinishi lozimligi maqsadidan kelib chiqadi, ammo aslida mualliflarning manfaatlarini ancha kengroq, o'zgacha bolishi mumkin. Ba'zi mualliflar barcha huquqlarni saqlab qolishga emas, balki ularning faqat bir qismini saqlab qolishga yoki umuman o'z asarlarini jamiyatga topshirishga intilishadi. Creative Commons litsenziyalari mualliflarning huquqlarini kengaytiradi va mualliflarga o'z huquqlarini himoya qilish darajasini mustaqil tanlash mexanizmini taqdim etadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, barcha Creative Commons litsenziyalari nomutlaq litsenziyalar bolib, boshqa shaxsga berilmaydi. Muallif boshqa shartlar asosida litsenziya shartnomalarini tuzish huquqini saqlab qoladi. Shuningdek, muallif asarni bir vaqtning o'zida bir nechta ommaviy litsenziyalar (Creative Commons) asosida internet olamiga joylashtirishi mumkin, foydalanuvchi muallif tomonidan taklif qilingan litsenziyadan birini tanlab, asardan foydalanadi.

Creative Commons litsenziyasi interfeysi mualliflar va foydalanuvchilarga litsenziya shartnomasining mohiyatini tushunishga, uning tavsifini o'qimasdan ham tushunishga imkon beradi. Bunga litsenziya shartnomalarining asosiy shartlari to'g'ridan-to'g'ri litsenziyalarning nomlarida asosiy elementlarning kombinatsiyasi shaklida yozilganligi bilan erishiladi. Ushbu elementlarning har biri qisqartma so'z va grafik belgi sifatida o'z belgisiga ega.

Creative Commons litsenziyalari qo'llanilishining asosiy sohalari:

Internet va ijtimoiy tarmoqlar sohasi. Ularga ko'ra, foydalanuvchilar o'z ishlarini (rasm, fotosurat, musiqa, videolar va boshqa ijodiy asarlarni) internetga joylashtiradilar, bu esa boshqa foydalanuvchilarga ijtimoiy tarmoqlarda, saytlarda va hokazolarda ushbu asarlardan erkin foydalanish va tarqatish imkonini beradi..

Ta'lim sohasi. Ko'pgina ta'lim muassasalari va ta'lim resurslari Creative Commons litsenziyalaridan o'quvchilarga o'quv materiallaridan bepul foydalanish imkonini beruvchi vosita sifatida foydalanadilar.

Ilm-fan sohasi. Tadqiqotchilar o'zlarining ilmiy maqolalari, tezis va boshqa ma'lumotlarini internetga yuklaydilar, bu esa boshqa foydalanuvchilarga ushbu materiallarni ilmiy nashrlarda erkin joylashtirish, iqtibos keltirish yoki ulardan foydalanish imkonini beradi.

Axborot resurslar va meros sohasi. Kutubxonalar, arxivlar va madaniy tashkilotlar ko'pincha ma'lumotlarni raqamli saqlash uchun Creative Commons litsenziyalaridan foydalanadilar, shuningdek raqamli kolleksiyalar va madaniy merosga internet orqali erkin kirishni ta'minlaydilar.

“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonuning 18-moddasida Muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari sanab berilgan bo'lib, ushbu moddaning 3-qismiga ko'ra muallifga oshkor qilingan asarini chaqirib olish huquqi berilgan. [8, 50].

Milliy qonunchiligimizga yuqoridagi 2 ta qo'shimchalar kiritilishi sababli, mualliflarning asarni chaqirib olish huquqini qonunga moslashtirish zaruriyati kelib chiqadi. Ya'ni muallif tomonidan Creative Commons litsenziyalari asosida - Erkin litsenziya shartlari asosida nomuayyan doiradagi shaxslarga asardan foydalanish huquqi taqdim etilgan bo'lsa (oddiy so'z bilan aytganda, asar wikipedia singari internet saytlarga ko'yilgan taqdirda), muallif asarni chaqirib olish huquqini yo'qotadi. Sababi saytdagi matn, foto asarlar, surat ikkinchi bir muallif tomonidan boyitilgan, qayta ishlangan bo'lishi mumkin, ya'ni xosila asar yaratilgan bo'lishi mumkin. Ma'lum bir vaqt o'tib, birinchi muallif tomonidan asarning chaqirib olishi natijasida hosila asarning mavjudligi noqonuniy bo'lib qolishi mumkin.

Qonunchiligimizda internetda mualliflik huquqi kim tomonidan bo'zilishi mumkinligi yoritilmagan: asarni joylashtirgan shaxsmi, asarni joylashtirish uchun joy taqdim etgan shaxsmi, domen nomi rasmiylashtirilgan shaxsmi. Shu kabi masalalarni echishda dunyo davlatlari tajribasidan foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Utanova, U. A., & Alimov, N. Yu. (2022, September). ETICHESKIE I LIDERSKIE KACHESTVA RUKOVODITELYa. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC

CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 1, No. 1, pp. 221-228).

2. Talipovich, A. G., Agzamkhodzhaevna, U. U., Xamdamovich, I. K., & Yunusovich, A. N. (2022). Problems Of Copyright Protection In The National Legislation Of Uzbekistan. Journal of Positive School Psychology, 6(10), 2378-2384.

3. <http://xn----8sbnlabhce1bwkeefm9e.xn--plai/Avtorskoe-pravo-i-internet-1.html>

4. Talipovich, A. G., Agzamkhodzhaevna, U. U., Hamdamovich, I. K., & Yunusovich, A. N. (2022). Problems Of Copyright Protection In The National Legislation Of Uzbekistan. Journal of Positive School Psychology, 6(10), 2378-2384.

5. Yunusovich, A. N. (2022). Copyright Protection Is One Of The Most Important Issues In Art. The Peerian Journal, 8, 9-12.

6. Alimov, N. Y. (2021). Architectural project-As an object of copyright. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 914-918.

7. АЛИМОВ, Н. Ю. (2019). COPYRIGHT PROTECTION THROUGH BLOCKCHAIN. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-6), 26-28.

8. Yunusovich, A. N. Occasional Use Of Anothers Work. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05), 47-52.